

2-TOM, 4-SON

OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING  
AHAMIYATI

**Ochilboyev Umidjon Iloxom o'g'li<sup>1</sup>,**  
**Do'schanov Bekzod Davronbek o'g'li<sup>2</sup>,**  
**Axmedjanova Gulbaxor Bakiyevna<sup>3</sup>**

<sup>1,2,3</sup> Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
[canc41946@gmail.com](mailto:canc41946@gmail.com), [duschanovbekzod17@gmail.com](mailto:duschanovbekzod17@gmail.com).

Hammamizga ma'lumki, istiqlol yillaridan so'ng oliy ta'lim tizimida sezilarli yutuqlarga erishildi. Hozirgi paytda nafaqat oliy ta'lim tizimida, balki yurtimiz bo'ylab barcha maktab va kollejlarda ham sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanilgan holda dars jarayonlari samarali tarazda olib borilmoqda. Sun'iy intellektning oliy ta'lim tizimi sohasidagi ahamiyati, va uni rivojlantirishdagi roli vaqt o'tgani sari ortib bormoqda. Sun'iy intellekt, talabalar uchun maxsus individual o'qitish tizimlarini yaratishda va o'qituvchilarga, o'quv jarayonini tizimli tashkil etishda yordam beradi. Bu, har bir talabaning fanlarni chuqur o'rganishini ta'minlaydi va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan vaqt va energiyani kamaytiradi. Shuningdek, Sun'iy intellekt tahlil qilish va ta'limning natijalarini baholashda, o'qitish uslublarini yaxshilashda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda Sun'iy intellektning ahamiyati Kundan-kunga ortib bormoqda va kelajakda ta'limning sifatini yuksaltishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'z navbatida, raqamli iqtisodiyotni o'z ish faoliyatida qo'llay oladigan, kreativ yondashuvga ega va Sun'iy intellekt mutaxassislariga alohida talabga ega. Sun'iy intellektni ilm-fanga joriy etish uchun malakali kadrlar sonini oshirish talab etiladi. Negaki aynan o'z kasbining ustasi bo'lgan mutaxassislar barcha jabhalarga Sun'iy intellekt kirib borishida asosiy omil bo'ladi. Hozirda yurtimizda shu yo'nalish bo'yicha "Raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellekt" ixtisosligi oliy malakali kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik mutaxassisliklar nomenklaturasiga kiritildi va uning pasporti yaratildi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida "Raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellekt ixtisosligi" bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti



## 2-TOM, 4-SON

ochildi. Sun'iy intellekt sohasida tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilikka jami 28 ta maqsadli kvotalar ajratildi. Bundan tayanch doktoranturaga 14 ta, stajyor-tadqiqotchilikka 14 ta qabul kvotasi ajratildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellekt yo'nalishi bo'yicha saralab olingan 10 nafar yosh olim 2021-2022 yillarda yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuboriladi.

Sun'iy intellekt sohasida ilmiy-texnik tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash doirasida umumiy qiymati 15,1 mlrd. so'm bo'lgan, davomiyligi 2021 – 2024 yillarga mo'ljallangan 9 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda, sun'iy intellektdan (SI), ma'lumotlar ta'minoti va tahlilda foydalanilishi o'z vaqtida ta'limda yondashuvchi xususiyatlar bilan aloqadorlik ko'rsatish imkoniyatlarida yangilik yozib turmoqda. SI-dan foydalanib, ta'lim dasturlari orqali talabalarning ta'lim boshqaruvini yangilash va kerakli ma'lumotlarni qabul qilishni ta'minlaydi.

Ta'limiy tizimlarda SI, talabalarnig ta'lim protsessiga moslashuvchi bir necha aspektlarda foydalaniladi:

- Ma'lumotlarni aniqlash: SI algoritmlari ko'proq ma'lumotlarni tezkor ishlab chiqish imkoniyatlariga ega. Ushbu ma'lumotlar talabalarga ta'lim mazmuni, savollarga javobda yordam qilish va turli masalalarni tushuntirish uchun kerakli ma'lumotlarni ta'minlashda ko'makchi bo'ladi.
- Talabalarga maslahat berish: SI, talabalarning bilim darajalari, qiziqishlari va ta'lim bo'yicha ma'lumotlar izlashda qo'llaniladi.
- Ta'limning individuallashtirilishi: Talabalarni ta'lim harakatlari bo'yicha individuallashtirish maqsadida SI, talabalarni o'zgartiriladigan ma'lumotlar bilan ta'minlash va muloqotlarni taqdim etadi.

Kelajakdagi raqamli ta'lim talabalarni materialni chuqurroq tushunishga undash bilan birga ancha qulay va moslashuvchan bo'ladi. U virtual reallik elementlarini, videodarslarni, shuningdek bilimlarni baholash uchun onlayn kurslar va avtomatlashtirish dasturlarini o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt talaba o'rganish uslublari va tezligiga mos keladigan individual yondashuvni targ'ib qiladi. Sun'iy intellekt ta'lim muhitida o'z samaradorligini isbotladi va bugungi kunda pedagogikadagi innovatsiyalar asosiy tendentsiyaga aylandi.

Yangi texnologiyalarni o'rganish nafaqat zarurat, balki o'quv markazlari, maktablar va universitetlar uchun muhim raqobat xususiyatiga aylanib bormoqda. Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ular o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi va talabalar yangi va innovatsion ta'lim usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zamonaviy texnologiyalardan keng



## 2-TOM, 4-SON

foydalanilayotgan zamonaviy o'quv jarayoni o'quvchilarga muvaffaqiyatli kelajak uchun barcha zarur bilimlarni berish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Karabulut-Ilgu, N. J. Cherrez and C. T. Jahren, "A systematic review of research on the flipped learning method in engineering education", Br. J. Educ. Technol, vol. 49, no. 3, pp. 398-411, May 2018.
2. "AI in Healthcare: Building a Successful Business Model" by Anthony Chang. 2020.

